



## 2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **3 753,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **103,9 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 471 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 175 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **99,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **124,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **12,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **132,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,4 %**) o'sishidir.




**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
<b>Surxondaryo viloyatii</b>	<b>2 296</b>	<b>2 471</b>	<b>107,6</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>723</b>	<b>721</b>	<b>99,7</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>46</b>	<b>54</b>	<b>117,4</b>
<b>Angor</b>	<b>125</b>	<b>143</b>	<b>114,4</b>
<b>Bandixon</b>	<b>-</b>	<b>38</b>	<b>-</b>
<b>Boysun</b>	<b>134</b>	<b>154</b>	<b>114,9</b>
<b>Denov</b>	<b>137</b>	<b>141</b>	<b>102,9</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>180</b>	<b>203</b>	<b>112,8</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>137</b>	<b>144</b>	<b>105,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>139</b>	<b>153</b>	<b>110,1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>103</b>	<b>112</b>	<b>108,7</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>123</b>	<b>136</b>	<b>110,6</b>

Termiz	213	221	103,8
Uzun	51	50	98,0
Sherobod	76	82	107,9
Shoʻrchi	109	119	109,2


**Surxondaryo viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.11.2020- yil holatiga koʻra (ulushi, % da)**



**Maʼlumot uchun:** viloyatda soni boʻyicha eng koʻp ulushga ega boʻlgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,2 %), Termiz tumani (9,0 %) va Jarqoʻrgʻon (8,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **518,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **88,9 %** ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **2,4 %** punktga kamayib, **13,8 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **55,6 %** i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **84,5 %**), Qumqoʻrgʻon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,8 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **94,6 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,6 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **86,3 %** ) ga toʻgʻri keldi.




### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,1 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,3 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etgan holda **2 367,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,1 %** ni tashkil etdi yoki **867,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **113,1 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **16,3** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 736,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,4 %** va **99,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3 753,1</b>	<b>16,3</b>	<b>100,0</b>	<b>3 736,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>1 007,0</b>	<b>16,3</b>	<b>100,0</b>	<b>990,7</b>	<b>26,5</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Oltinsoy</b>	<b>65,3</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>65,3</b>	<b>1,7</b>
<b>Angor</b>	<b>147,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>147,4</b>	<b>3,9</b>
<b>Bandixon</b>	<b>28,3</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>28,3</b>	<b>0,8</b>
<b>Boysun</b>	<b>260,9</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>260,9</b>	<b>7,0</b>
<b>Denov</b>	<b>278,8</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>278,8</b>	<b>7,4</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>204,9</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>204,9</b>	<b>5,5</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>114,0</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>114,0</b>	<b>3,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>134,0</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>134,0</b>	<b>3,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>160,9</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>160,9</b>	<b>4,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>675,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>675,4</b>	<b>18,1</b>
<b>Termiz</b>	<b>218,5</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>218,5</b>	<b>5,8</b>
<b>Uzun</b>	<b>105,6</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>105,6</b>	<b>2,8</b>
<b>Sherobod</b>	<b>248,9</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>248,9</b>	<b>6,7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>103,2</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>103,2</b>	<b>2,8</b>



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-oktabr**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,6 % i yoki **2 837,9** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**75,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **472,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 91,1 % ni tashkil etdi

**91,1 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 573,9** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi.

**66,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **791,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 91,3 % ni tashkil etdi.

**91,3 %**




**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3 753,1</b>	<b>103,9</b>	<b>100,0</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>1 007,0</b>	<b>111,4</b>	<b>26,8</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>65,3</b>	<b>100,3</b>	<b>1,7</b>
<b>Angor</b>	<b>147,4</b>	<b>100,7</b>	<b>3,9</b>
<b>Bandixon</b>	<b>28,3</b>	<b>100,1</b>	<b>0,8</b>
<b>Boysun</b>	<b>260,9</b>	<b>105,0</b>	<b>7,0</b>
<b>Denov</b>	<b>278,8</b>	<b>103,6</b>	<b>7,4</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>204,9</b>	<b>96,7</b>	<b>5,5</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>114,0</b>	<b>92,6</b>	<b>3,0</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>134,0</b>	<b>97,8</b>	<b>3,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>160,9</b>	<b>105,7</b>	<b>4,3</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>675,4</b>	<b>100,8</b>	<b>18,0</b>
<b>Termiz</b>	<b>218,5</b>	<b>102,6</b>	<b>5,8</b>
<b>Uzun</b>	<b>105,6</b>	<b>100,9</b>	<b>2,8</b>
<b>Sherobod</b>	<b>248,9</b>	<b>103,9</b>	<b>6,6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>103,2</b>	<b>104,5</b>	<b>2,8</b>

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari**

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga kamayib, **65,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko'payib, **34,2 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



**Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **50,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **7,0 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **49,7 %** (**7,0 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,6 %** punktga kamaydi va **10,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,1 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,6 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Termiz sh.  
1 007,0



Sariosiyo  
675,4



Denov  
278,8



Sherobod  
248,9



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Termiz sh. (1 007,3 mlrd. so'm), Sariosiyo (675,4 mlrd. so'm), Denov (278,8 mlrd. so'm), Sherobod (248,9 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Tel.: 76 225-65-59**